

TA'LIM TEXNOLOGIYA ASOSIDA MAKTAB BITIRUVCHILARINI
KIMYO FANIGA YO'NALTIRISH VA KASBGA
TAYYORLASH METODIKASI

*Katta o'qituvchi I.B.Egamberdiyev,
o'qituvchi N.Q.Abdullayev
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotasiya. Ta'lim texnologiya asosida maktab bitiruvchilarini kimyo faniga yo'naltirish va kasbga tayyorlash uchun, kimyo fanini chuqur o'rgatish kimyo tilini bildirish, formulalarni yozish, tenglamalar tuzish, moddalarning hossalarni va mashiq-masalalar yechish usullarini o'rganishdan iborat. Yangi pedagogik ta'lim texnologiyalardan foydalanish - interfaol metodi, bitiruvchilarni kimyo faniga qiziqtirish qo'shimcha darslar tashkil qilish, hamkorlikda o'qitish – sinov darslari mazmuni kiritilgan.

Kalit so'zlar: kimyo va uni o'qitish metodikasi, kimyoviy tafakkur va uning shakillanishi, ta'lim texnologiya, kimyoviy jamg'arma, o'qitishning metodik prinsipi.

Bugungi kunda O'zbekiston respublikasida ta'lim samaradorligini oshirish uchun bitiruvchilarning kimyo fani bo'yicha bilim saviyasini oshirish, yetarli bilim va ko'nikmalarga va tajribalarga ega bo'lishi lo'zim. Kimyo faniga mo'ljallangan kitoblar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, monografiyalar shu kabi adabiyotlardan foydalanish kerak va mustaqil ishlash uchun tarqatma materiallar bitiruvchilarning kasbga bo'lgan munasabatini oshiradi .

Kimyo fanini chuqur o'rgatish uchun bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi yo'qari bo'lish kerak masalan reaksiya tenglamalarni yozishni kimyoviy moddalarni nomlashni ,eritmalarini tayyorlashni bilish kerak.

Maktab bitiruvchilarning bilim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kimyo fanini o'qitishda yangi innovatsion texnologiyalarni dars jaryonida qo'llash uchun bitiruvchilarning kimyo fanini yaxshi bilishi uchun quyidagilarni bilishi kerak bo'ladi [1].

-bitiruvchilar kimyo fanidagi mavzuga oid nazariy ma'lumatlarga ega bo'lishi,kimyofanidan amaliy ko'nikmalarni shakillanishi, kimyofanidan laboratoriya mashg'ulotlarda tajribalarni bajarish usullarini bilishi va kimyoviy tushinchalar hosil bo'lishi.

- maktab bitiruvchi yashlari kimyofanidan tarqatma matriallardan dars jarayanida to'g'ri samarali foydalanishni bilish,dars ishlanmalar bo'yicha kimyoda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rganish. mavzuga mos keladigan metodlarni to'g'ri tanlashni va foydalanishni bilish.

- maktab bitiruvchi yashlari, kimyo fani bo'yicha to'garaklarni va tadbirlar o'tgazishni bilishi, kimyo o'quvchilar atama so'zlarni, kimyoviy moddalarni nomlashni (tilini) bilish, kimyodan masala va misal mashiqlarni yechishni bilish.

O'z ustidan ishlaydigan bilimdan ma'naviy jixatdan barkamol bo'lishi. Kimyoviy tushinchalarga ega bo'lishi, o'qitishda bitiruvchi yoshlar ushbu ko'rsatilgan punktlarni puxta egalasa maktabda, kollejlarda, akedemik litseylarda va oliy ta'lim tizimida kimyo darslarini o'zlashtirsa kimyo fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi. Bitiruvchi yoshlar sertifikatiga ega bo'lishi, ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni bilishi darajasini hisobga olish kerak bo'ladi.

Xar bir bitiruvchi yoshlar ilmiy jixatdan, ilmiy-uslubiy, va na'naviy jixatdan barkamol bilimga ega bo'lishi lozim, dunyo qarashi keng, fikrlash qobiliyati yetarli bilim darajasi aniq bo'lgan bitiruvchi shaxs bo'lishi kerak.

Nazariy va amaliy jixotdan ma'lumatlarni to'g'ri yetkaza oladigan bitiruvchi yangi pedagogik-psixologik bilimlar kerak bo'ladi bunday jarayonda pedagogik texnologiyalarning o'rni katta bo'ladi [2].

Ta'lim texnologiyalari-Modulli ta'lim-modul (lotincha modulus so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini bildiradi. Muammoli ta'lim-muammoli bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning mustaqil yechimini qidiradi, to'padi. Inter faol metodi-ijodiy faolligi, izlanuvchanligi, mustaqil ishlashga intilishi kabi ijobiy holatlarni shakllantirishning eng samarali usulidir. Didaktik o'yinlar-o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, dunyo qarashni kengaytiradi, ijodiy fikrlashni qobiliyatini oshiradi, rivojlantiradi. Hamkorlikda o'qitish-o'quvchilar guruhi, hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil etadi [3].

„Keys-stadi“ metodidan foydalanish-bitiruvchi yashlarni o'quvchilarning qiziqishi, ilmiy ijodkorligini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha katta tajriba to'plangan. Keys-stadi interaktiv ta'lim uslubi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Ushbu texnologiya o'qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasidir [1].

„Keys-stadi“- (inglizcha case - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) - keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir. Keysni bajarish uchun o'quvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Mutaxassis pedagoglar yosh bitiruvchilarga yordam berishimiz kerak yangi innovatsion texnologiyani o'rgatishimiz kerak. ta'lim texnologiya asosida maktab

bitiruvchilarini kimyo faniga yo'naltirish va kasbga tayyorlash uchun, kimyo fanini chuqur o'rgatish. Yangi pedagogik ta'lim texnologiyalardan foydalanish -interfaol metodi, Bitiruvchilarni kimyo faniga qiziqtirish qo'shimcha darslar tashkil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H.T, Maranmova U.R. Kimyo o'qitishning jamiyatagi o'rni va ahamiyati. Kontsentrik ta'lim kontekstida inovatsion texnologiyalar ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. Toshkent, Yangi nashri 2017.-B-193.

2. Egamberdiyev I.B. Kimyo o'qitishda tarixiy ma'lumatlardan foydalanishning zaruriyati Toshkent, Yangi nashir 2001 yil.

3. N. Sayidaxmedov «Yangi pedagogik texnologiya» Toshkent. 2003 yil.

4. I.B. Egamberdiyev, M.M. Sultonov, E.B. Shamuratov Bo'lajak kimyo fan o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini shakillantrish uchun yangi pedagogik ta'lim texnologiyalardan foydalanish - maqola 2023 y